



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
ANTROPOLOGIYA VA ETNOLOGIYA KAFEDRASI

**“TARIXIY OBYEKTTLAR VA TABIIY MASKANLAR UYG'UNLIGI
ASOSIDA O'ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA
ISTIQBOLLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining

TO'PLAMI



Toshkent – 2024-yil, 17-aprel

Mazkur to'plamda "Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg'unligi asosida o'zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari" xalqaro konferensiyasiga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rinn olgan.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada turizmning shakllanishi va rivojlanishi tarixiy bosqichlari, tarixiy-etnografik turizmning ilmiy nazariy muammolari, metodologiyasi, mazkur soha bo'yicha jahon tajribasi, mavjud muammolarning antropologik tahliliga oid mulohazalar, turizmning yangi – ekoturizm, etnoturizm, gastronomik turizm, geneologik turizm kabi yo'nalishlarini yo'lga qo'yish ham bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar, mobil ilovalar (APP) ning qo'llanilishi bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Konferensiya materiallaridan OTMlar va barcha turdag'i ta'lim muassasalar professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqot instituti xodimlari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada izlanayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

MUNDARIJA	
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна ЭТНОТУРИЗМ ТУШУНЧАСИ, ЎЗБЕКИСТОНДА ЭТНОТУРИЗМ ШАРТ-ШАРОИЛЛАРИ ВА МУАММОЛАР	6
Jasurbek Mamatov Qodirqul o'g'li <i>CHUST TUMANI ZIYORATGOHLARI TARIXIDAN (MAVLONO LUTFULLOH ZIYORATGOHI MISOLIDA)</i>	15
Murodov Halim <i>MUSTAQILLIK ARAFASIDA O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI</i>	19
Nigmatov Alisher Xayrulla o'g'li <i>SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DAVLATLARNING TURIZM SOHASIDAGI HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISHI</i>	24
Q.Matxoliqov <i>XALQARO TURIZM RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI</i>	32
Aimei Zhang <i>THE HISTORICAL PRACTICE AND SIGNIFICANCE OF PROMOTING HAN CULTURE IN THE WESTERN REGIONS DURING THE HAN DYNASTY</i>	37
Anarkulov S.M. <i>SHAHAR TURIZMI – SAYYOHLIKNING YANGI YO'NALISHI SIFATIDA</i>	42
Ауанасова А.М., Черниенко Д.А. <i>ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО КЛАСТЕРА АКМОЛИНСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН НА ОСНОВЕ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ</i>	47
Avezov Muxriddin Maqsud o'g'li, Elmurotova Aziza Mahmatmurod qizi <i>KATTAQO'RG'ON TUMANIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HAMDA MADANIY MEROS OBYEKTALARINI KARTALASHTIRISH MASALALARI</i>	56
Турсунов Фаррух Ғуломович <i>ЎЗБЕКИСТОН ТОЖИКЛАРИГА ХОС КИЙИНИШ ВА ТҮҚУВЧИЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ЭТНОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ</i>	62
Turdimuratov Y.A. <i>ETNOTURIZM SHAKLLARI, YO'NALISHLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	67
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна, Г.К.Юлдашева Гулнора Камиловна <i>ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ ВА ИСТИҚБОЛ РЕЖАЛАР</i>	72
Davlatova Saodat Tilovberdiyevna <i>YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA QASHQADARYO ZIYORAT OB'EKTALARIDA DINIY BAG'RIKENGLIKNING AHAMIYATI</i>	78
Одилов Бобир Ахмаджон ўғли <i>ЎЗБЕКИСТОНДА ЭТНОТУРИЗМНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ХУСУСИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР</i>	84
Утебаев Мадияр, Адилова Надира,	89

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA QASHQADARYO ZIYORAT OB'EKLARIDA DINIY BAG'RIKENGLIKNING AHAMIYATI

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna

*Tarix fanlari doktori, professor O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi
Millatlararo munosabatlar qo'mitasi Markazi rahbari*

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo vohasida mavjud ziyoratgohlar, ularning joylashgan o'rni, mahalliy xususiyatlari hamda mazkur ziyorat ob'ektlarining respublikada diniy bag'rikenglikni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Qashqadaryo vohasi, ziyorat turizmi, millatl, elat, diniy konfessiya, ziyoratgohlar.

O'ziga xos etnografik mintaqalardan biri hisoblan Qashqadaryo vohasi o'zbek xalqining qadimiy tarixi, betakror madaniyati va muqaddas ziyoratgohlari bilan mashhur. Qolaversa, mana shunday o'ziga xos mintaqalarda mavjud ziyorat va ziyoratgohlar bilan bog'liq qarashlar hamda qadamjolarning mahalliy xususiyatlarini tarix, etnologiya, madaniy antropologiya, arxeologiya, falsafa, dinshunoslik va sotsiologiya kabi fanlararo yondashuv asosida kompleks tarixiy-etnologik yo'nalishda tadqiq etishga ehtiyoj sezilmoqda.

Tarixdan ma'lumki, Movarounnahr hududida mavjud bo'lgan dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, murosa va hamjihatlik madaniyati an'analari hozirgi kunda ham davom etmoqda. Jumladan, O'zbekistonda yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari e'tiqod qiladigan 16 ta diniy konfessiyaning erkin faoliyatiga ruxsat etilganligi, ular orasida turli dinlar, islom, xristianlik va uning ko'plab yo'nalishlari, yahudiylilik, buddaviylik vakillari o'z diniy ibodatlari, urf-odatlarini amalga oshirib kelmoqdalar.

Ayniqsa, muqaddas ziyoratgohlar kishilardagi oljanoblik tuyg'ularini shakllantirishda alohida ahmiyatga ega bo'lishi bilan birga muqaddas joylarni ziyorat qilish insonlarni to'g'ri yo'ldan yurishi, insof-diyonatli bo'lish va o'zidan faqat yaxshilik qoldirish singari xayrli ishlarga undagan.

Qashqadaryo vohasi gerografiq jihatdan tog' va cho'l qismlarga bo'linib, o'troq va ko'chmanchi aholining urf-odat va marosimlari o'zaro uyg'unlashib ketgan hudud hisoblanadi. Bu qadimiy o'lka o'z davrida Yunon Baqtriy, Kushon, Sug'd, Arab xalifaligi va keyinchalik boshqa turkiy xalqlar tarixida muhim ahmiyat kasb etgan voha hisoblangan.

Shuni ta'kilash kerakki, Qashqadaryo ziyoratgohlarini mavqiyega qarab, mahalliy va respublika miqyosdagi muqaddas joylarga ajratish mumkin. Qolaversa, muqaddas ziyoratgohlar o'zbek xalqining milliy va ma'naviy boyligi bo'lib, Qashqadaryo vohasida joylashgan Yakkabog' (Makka Saidota, Tutakota, Xo'ja Ilg'or ota, Ukkosho ota), Qarshi shahri (Abu Ubayda Jarroh), Qarshi tumani (Imom Muyin an-Nasafiy majmuasi), Qamashi tumani (Langar ota, Mushkul ota, Ug'lon ota), Kitob tumani (Hazrati Bashir, Hazrati Sulton, Xoja Ilmgoniy, Xo'ja Ne'matilloh maqbarasi, Hazrati Sulton maqbarasi, Xo'ja Ilm Kon maqbarasi, Mavlono Darvesh Muxammad Vaxshuvoriy), Kosondagi Xusam ota, Kasbi (Mir

Xaydar Sulton, Xo'ja Murodbaxsh), Mirishkorning Ko'hna Fazli, Dehqonobod tumani (Xo'jai Pok ota, Buloq ota), Nishonning Nazar bobo, Shahrisabz shahrining (Oq Saroy va Doruttilovat majmualari, Ko'k Gumbaz masjidi, Dorussaodat majmuasi, Samarqand Darvozasi, Koba karvonsaroyi, Chuben' madrasasi), Shahrisabz tumani Arslonbob ota, Muborakdagi Muborak al-Mervaziy ziyoratgohi va G'uzor tumanidagi Musofir ota maqbarasi kabi ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarda o'z aksini topganligini ko'rish mumkin.

Vohada har bir muqaddas joy, ziyoratgoh, tarixiy obida, qadamjolar kishilar tasavvurida ilohiy kuchga ega bo'libgina qolmay, qadimdan ziyoratgohlarga nisbatan ilohiy ta'sir ko'rsatishga qodir, deb qaralgan. Shu sabab ularning o'rnida o'zga maqsadlarda turli bino va imoratlar qurish o'tgan avliyolarga nisbatan hurmatsizlik sifatida qabul qilinadi deb tushunilgan.

Mahalliy aholining ziyoratgoh va qadamjolarga bo'lgan munosabati ijobiy bo'lib, ziyoratgohlar, mozorlar, qadamjoylar oldidan o'tayotgan har bir inson biron bir transportda bo'lsalar undan tushgan va o'sha ziyoratgohni ziyorat qilib, so'ngra yo'lida davom etganlar.

BMTning Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) 2013 yilda O'zbekistonni turizm sohasi jadal rivojlanib borayotgan ilg'or beshta davlat qatoriga kiritdi(5). Butunjahon sayyohlik tashkilotining bergen ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston turizm sohasi eng jadal sur'atlarda rivojlanayotgan 20 ta mamlakat ro'yxatidan o'rin olganligi fikrimiz dalilidir.

BMTning 2015 yil qabul qilingan 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi tadbirlarga turizmga iqtisodiyotning mamlakatlar barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan asosiy tarmoqlardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Chunki, bugungi kunda turizm yangi ish o'rinnari yaratish, mamlakat yalpi ichki mahsulotining ortishi, savdo va eksportning o'sishiga ta'sir ko'rsatadi hamda dunyodagi madaniy xilma-xillikni saqlashga yordam berishi bilan birga dunyodagi barcha xalqlarning madaniy ma'anviy qarashlarini yaqinlashtiradi. Milliy merosini o'rganishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevral "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi 120-sonli Qarorida ko'rsatilganidek, "Yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda muqaddas maskanlarni saqlash, qadrlash, ajdodlar xotirasiga hurmat-ehtirom ko'rsatish tuyg'ularini shakllantirish, shuningdek, vatandoshlarimizni yurtimizdagи qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obod qilishdek ezgu ishlarga faol jalg etish, bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish davr taqozosidir"(9).

Ma'lumki, 2019 yil 19 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" nomli rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019 yil aprel oyida Pekinda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumi doirasidagi uchrashuvda ilgari surilgan edi. Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan mazkur hujjatga Shimoliy va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarning 50 dan ortiq mamlakatlar hammualliflik qildi. Bu xalqaro hamjamiyat

15.03.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

tomonidan O'zbekiston rahbari tashabbusi dolzarb ahamiyat egaligi va yuksak e'tirofini ham namoyon etdi. Hammualliflar orasida Braziliya, V'yetnam, Indoneziya, Hindiston, Irlandiya, Isroil, Xitoy, Kanada, Norvegiya, Marokash, Koreya respublikasi, Rossiya, Singapur, Senegal, Turkiya va boshqa davlatlar vakillari bor.

Rezolyutsiyada Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan BMTning 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi global kun tartibini bajarish yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlar, mintaqada barqaror turizmni yanada rivojlanirish maqsadida tashkil etilayotgan turli xalqaro tadbirlar, shuningdek, mamlakatlarning turizm sohasiga xalqaro moliya va investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ishlab chiqayotgan chora-tadbirlarining muhim ekanligi qayd etiladi.

Mazkur hujjat Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo hududi orqali o'tgani, mintaqaga mamlakatlarining jahon bozorlarida turizmni targ'ib qilish borasidagi sa'y-harakatlari xorijlik sayyohlarning Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqishining yanada ortishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, BMTga a'zo davlatlar rezolyutsiyada Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy barqarorlik va izchil taraqqiyotni mustahkamlashga qo'shgan salmoqli hissasini yuksak baholagan, mintaqada iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakat va tashabbuslarni to'liq qo'llab-quvvatlashini qayd etgan.

BMTga a'zo davlatlarni Markaziy Osiyoda barqaror turizmni rivojlanirishga qaratilgan yirik tadbirlarda faol ishtirok etishga chaqiradi. Bu esa mintaqada sayyohlik tarmog'i rivojiga va hududda mavjud ziyoratgohlarning mahalliy ahamiyatini ko'tarishga xizmat qiladi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ushbu rezolyutsiyaning bir ovozdan qabul qilinishi O'zbekiston rahbariyatining Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida turizmni rivojlanirish, ilm-fan, texnika, innovatsiya va sayyohlik sohalaridagi aloqalarni chuqurlashtirish orqali yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanayotganini namoyish etdi.

Ziyorat – ibodat maqsadidagi sayohat bo'lib, turizmning eng qadimgi ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi dunyo dinlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ziyorat turizmi tarixiga ming yildan oshgan. Qadimgi yunon va rimliklar ma'bad uylari va ibodatxonlarga ziyorat uyushtirishgan. Hindistonda azaldan odamlar u yoki bu xudolar ta'sirida muqaddas joylarga ziyoratga borib turishgan .

O'rta asrlarda ziyorat ommaviy tus olgan. XI-XII asrlarda ro'y bergan salib yurishlari bunga yorqin misoldir .

O'zbekistonda boshqa turdag'i turizmni rivojlanirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlanirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-2025 yillarda Turizmni rivojlanirish milliy kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Shunga asosan 2025 yilda O'zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollardan oshirish masalalari ko'zda tutilgan .

Turizm ma'nosiga kelsak, tanishuv maqsadidagi sayohat hisoblanib, ziyorat turizmi esa turizmnning mashhur turlaridan biri sifatida muqaddas joylar tarixi, avliyolar hayoti, ziyoratgohlardagi arxitektura va san'at asarlari bilan tanishish imkoniyatini yaratadi .

Hozirda respublikada turizm ko'pincha qadimiy shaharlar, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, Yangi O'zbekistonda boshqa turdag'i turizmni rivojlanterish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlanterish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. Jumladan, turizm sohasida gastronomik, etnografik, ekologik, sport, esktremal turlari qatorida ziyorat turizmi ham alohida o'rinn egallaydi.

Shahrisabz tumani G'elon qishlog'i - dengiz sathidan 2336 metr balandlikda, shahar markazidan 87 km. uzoqlikda joylashgan bo'lib, ushbu qishloqda 1174 ta xo'jaliklarda 5143 nafar aholi yashaydi. G'elon qishlog'i aholisi asosan qadimiy madaniyat va urf-odatlarini saqlab qolgan tojik millatiga mansub. Hudud MDH davlatlari rassomlari va fotograflari orasidagi eng mashhur etno qishloq hisoblanadi. Qishloqdagi "Muhammadiy" rassomchilik galereyasidagi G'elon qishlog'i hamda qishloq aholisining etno turmushi aks ettirilgan rasmlar jamlanmasi dunyo rassomlari orasida shov-shuvga sabab bo'lib kelmoqda.

Shahrisabz tumanidagi Ko'l qishlog'i-dengiz sathidan 2466 metr balandlikda, tuman markazidan 95 km. uzoqlikda joylashgan bo'lib, ushbu qishloqda 220 ta xo'jaliklarda 1240 nafar aholi yashaydi. Bu qishloq tog'li hududda bo'lganligi uchun turizmning al'pinizm, etno, speleo, gastronomik, trekking turlarini tashkil etish uchun eng boy hudud hisoblanadi. Ko'l qishlog'idagi 4 ta temirchi va 7 ta duradgor hunarmandlar uylarida gastronomik turizm yo'nalishi bo'yicha hech qayerda mavjud bo'lmagan "Rivoch oshi", "Lotingon" (un, suv, sariyog') taomi, "Kashk" (tosh bilan maydalangan bug'doy, go'sht, no'xot, loviya va ziravorlar) taomi va "qo'y sariyog'ida pishirilgan mahaliy kartoshka" taomlarini tayyorlash bo'yicha mahorat darslarini tashkil etish mumkin. Xonadonlarda "mehmon uylari" tashkil etilmoqda.

Tumanlagi yana bir Suvtushar qishlog'i-dengiz sathidan 1900 metr balandlikda, tuman markazidan 68 km. uzoklikda joylashgan. Suvtushar qishlog'i Boshkop, Tamshush, Sarchashma qishloqlari bilan chegaradosh. Qishloqda 219 ta xo'jaliklarda, 1042 nafar aholi yashaydi. Shundan 523 nafari erkaklar, 519 nafari ayollar. Ularning 241 nafari 20 yoshgachar, 218 nafari 20-40 yoshgacha, 583 nafari 40 yoshdan oshgan fuqarolarni tashkil etib, aholisi o'zbek va tojik millatiga mansub. Suvtushar qishlog'i axolisi asosan bog'dorchilik bilan shug'ullanadi. Shu jumladan, agroturizmni rivojlanterish hamda tashkil etilgan bog'lardagi mevalardan turistlar uchun "Fresh juice" tayyorlab berish imkoniyati mavjud. Suvtushar qishlog'ida 80 metrlik Suvtushar sharsharasi borligi, Suvtushar qishlog'idagi tog'larda shumtol, zarang, tol, Buxoro bodomi, Regel noki kabi daraxtlari juda mashhur.

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilish mumkinki, Shahrisabz tumanidagi Ko'l, G'elon, Sarchashma, Suvtushar, Xisor qishloqlaridagi toza havo va ko'rkan tabiatdan sayohlar bahramand bo'lishi uchun yellarda hech kanday to'siqlar mavjud emas.

Jahon turizm tashkiloti (JTT) ekspertlari va mutaxassislari ziyorat turizmini XXI asr turistik sayohatlarining eng istiqbollari turlaridan biri deb qayd etdi.

Umuman olganda, ziyorat turizmi kishilarning dunyoviy sayohati ham bo'lib, madaniy – ma'rifiy maqsadlarni amalga oshiradi, diniy ibodat joylari, tarixiy-madaniy, tabiiy ob'ektlarga ekskursiya shaklida alohida odob amalining kommunikativ shakli tarzida o'tkaziladi. Buning uchun fakat diniy marosim ziyoratchilar bo'lishi talab etilmaydi . Turizmning ushbu turi zamirida turli dinlar va aholining qatlamlari vakillari bilan nafaqat diniy, balki tarixiy, madaniy va badiiy qiymatga ega joylarga tashrif buyurib, yangi bilimlarni olish imkoniyati paydo bo'ladi. Bugungi kunda "ziyorat turizmi", "ziyorat tur", "ziyorat ekskurtsiyasi" kabi tarzida ko'p qo'llanilayotganligi muqaddas joylarga tashrif buyuruvchilarning sayyoh yoki ziyoratchilar sifatida tanitadi hamda ob'ektning ma'lum funktsiyani bajaruvchiga aylantiradi .

Shuningdek, ziyorat turizmi madaniy-ma'rifiy maqsadlar yo'lida e'tiqodli kishilarning ziyoratgohlardagi sayohati bo'lishi bilan birga ziyoratchilarning ziyoratgohlarga oid tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, falsafiy dunyoqarashining kengayishi va estetik zavq olishi ham tushuniladi .

Hozir O'zbekiston nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Aynan mazkur zamin g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari, tutashgan mintqa bo'lishi bilan birga turli madaniyatlar va din vakillarining muqaddas sajdah bo'lgan. Yurtimiz xududlarida bir vaqtida Yer yuzida ilk kishilik manzillari joylashgan deb taxmin qilinayotganligi va bu borada topilgan bir qator isbotu dalillar ham ushbu zaminining tarixi naqadar ko'hna ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бирюкова Е. В. Религиозный туризм в территориальной рекреационной системе ЦЧР. Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. География. Геология. Том 3 (69). № 1. 2017. – Б..20.
2. Бондаренко Д.В. Аспекты правового регулирования паломничества и религиозного туризма на современном этапе // Вестник ассоциации вузов туризма и сервиса. 2015. Т.3–9. –Б.15.
3. Глушко А.А., Сазыкин А.М. География туризма. – Владивосток.: изд.Дальневосточного университета, 2002.- Б.55.
4. Макаренко С.Н., Саак А.Э. История туризма. –Таганрог.2003.-С.4.
5. Узбекистан признан одним из мировых лидеров в сфере развития туризма //http://news.mail.ru/inworld/uzbekistan/society/12516504/?frommail=1
6. Паломничество и туризм.https://tonkosti.ru.
7. Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. паломнический туризм: сущностные аспекты // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 6.
8. Сенин В.С. Организация международного туризма: учеб. / Сенин В.С. М.: Финансы и статистика, 2003. –400 б.

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг “Муқаддас қадамжолар, зиёратгоҳлар, масжидлар ва қабристонларни ободонлаштириш ишларини самарали ташкил этиш тўғрисида”ги (2018 йил 15 февраль) 120-сон қарори // www.lex.uz
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. (28 декабр 2018 йил). –Т.: “Ўзбекистон”.2019.-Б.39.
11. Majidov, R. R., Boqiyev, F. H., Raximov, D. R., Saydaxmadov, A. V., Soliyev, I. S., & Abduqodirov, D. S. (2023). JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI DARS MASHG 'ULOTLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 28-32.
12. Boqiyev, F. (2024). MASSAJ VA GIMNASTIKA MASHQLARI ORQALI REFLEKTOR HARAKATLAR VA “HARAKAT XOTIRASI” NI TAKOMILLASHTIRISH. SPORT VA XORIJIY TILLAR INTEGRATSİYASINING AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI, 1(1), 365-369.
13. Fazliddin, B. (2024). BO ‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O ‘QITUVCHILARINI TURISTIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. Research and implementation, 2(4), 142-146.
14. Kurbonali, S., & Umarali, Y. (2023). AGE-SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PHYSICAL FITNESS OF COLLEGE STUDENTS. Conferencea, 188-191.
15. Мамажонов, Н., Хамракулов, Р. А., Хайдаралиев, Х., Хасанов, А., Бобожонов, Н., & Усмонов, З. КБК: 751 М23 Ташкилий кумита.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЭТНОТУРИЗМНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ХУСУСИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Одилов Бобир Ахмаджон ўғли

Тошкент давлат шарқшунослик университети “Марказий Осиё ҳалқлари тарихи
ва этнологияси” кафедраси доценти

Аннотация: Ушбу мақолада мамлакатимизнинг Янгиқўргон туманида жойлашган, ахолисининг кундалик турмуши, моддий ва номоддий ҳаётидаги анъанавийликни сақлаб қолган қишлоқлар ва уларнинг вужудга келиши тарихи ҳамда ўзига хос хусусиятларини этнотарихий нуқтаи назар билан кўрсатишга ҳаракат қилинганд. Қолаверса, тарнсформацияга учраган қадриятларни асилича тиклаган холда сайёҳларга намойиш қилиши орқали мамлакатимизда туризм имкониятини оширишга кўмаклашувчи мулоҳазалар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Этнотуризм, Янгиқўргон тумани, қишлоқ, Бекобод қишлоғи, Булғобошисой, Гайистон қишлоғи, Дўлди қишлоғи, Заркент, Исковор қишлоғи, Кўкёр қишлоғи, Ёртена, Мамай қишлоғи, Мўғол қишлоғи, Нанай қишлоғи.

Сўнги йиллар Ўзбекистонда туризм индустрисини ривожлантириш, шу жумладан, ички ва ташқи сайёҳлар учун қулайлик яратиш, тармоқнинг рақобатбардошлигини мустаҳкамлаш, кўрсатиладиган хизматлар сифатини яхшилаш ва жаҳон бозорига миллий туристик масканларни фаол танитиб бориш бўйича муҳим ишлар амалга оширилмоқда. Ушбу ислоҳотларнинг натижаларини юртимизга кириб келаётган сайёҳлар сонининг йилдан йилга ортиб бораётганлиги, туристик масканлар инфратузилмасининг модернизация қилинаётганлиги, қолаверса, виза режимини эркинлаштириш борасида сезиларли натижаларга эришишга муваффақ бўлингандигида кузатиш мумкин (Ozodova Z., 2022). Хусусан, Статистика агентлигининг маълумотларига кўра 2023 йилнинг январь-декабрь ойларида 6,6 млн нафар чет эл фуқаролари туристик мақсадларда Ўзбекистонга ташриф буюрган. Бу кўрсаткич 2022 йилга нисбатан 1,4 млнга ёки 26,6 фоизга ошганлигини юқоридаги фикрларга мисол сифатида қайд этиш мумкин. Ташриф буюрган сайёҳларнинг доимий манзили таҳлил қилинганда 2023 йил давомида энг кўп ташриф Тожикистон (2 млн 155,2 минг), Қирғизистон (1 млн 757,1 минг) ва Қозоғистон (1 млн 333,3 минг нафар)дан бўлганлигига гувоҳ бўлиш мумкин. Сайёҳ сифатида Россиядан 714,3 минг киши келган бўлса, Туркиянинг кўрсаткичи 106,5 минг нафарни ташкил этган. Қолаверса, 2024 йилда 10 миллион хорижлик сайёҳ келиши кутилаётганлиги хақидаги прогнозлар мавжуд (<https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/21/tourists/>). Ундан ташқари Хитой, Ҳиндистон, Эрон ва Араб мамлакатларидан ҳам минтақа табиати ва инсонлар турмуш тарзига қизиқувчилар бисёр.

Туристик инфратузилмани яҳшилаш бўйича ҳам ҳукumat томонидан изчилил чоратадбирлар амалга оширилаётган бўлиб, таҳлилларга кўра, 2023 йилда 810 та янги